

Farg'ona Politexnika Instituti „ Oliy matematika “ kafedra PhD, Alimjonova Gulnoza Isroiljon qizi taqrizi ostida

**Nazarova Gulsanamkhon Abdurakhmonovna Farg'ona Politexnika Instituti „ Oliy matematika “ kafedra katta o'qituvchisi
Telefon raqami: +998 90 303 70 93
Orcid: <https://orcid.org/0000-0002-0864-2417>
E-mail: nazarovagulsanam2022@gmail.com**

BO‘LAJAK IQTISODCHILARDA ANALITIK TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING AMALIYOTDAGI HOLATI

Annotatsiya: Oliy ta'limning asosiy vazifasi talabning individual imkoniyatlarini ochish va rivojlantirish, shaxsiy erkinlik va ijodiylik imkoniyatlarini ochishga, o'stirishga yordam berishdan iborat. Bugungi kunda oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlashda ikki qarama-qarshi yo'nalish: fundamentallashtirish va professionallashtirishning kurashi muhim ahamiyatga ega. Egallangan fundamental bilimlar faqat professionallashtirishning ma'lum darajasiga yetgandagina amaliy faoliyatda yordam berishi mumkin.

Kalit so'zlar: O'z-o'zini nazorat qilish, analitik tafakkur, ta'lim-tarbiya, integratsiyalashuv, iqtisodiyot, bozor iqtisodiyoti, pedagogika, kompleks yondashuv, zamonaviy fan-texnika, mustaqil fikr, mutaxassis tayyorlash tizimi.

СОСТОЯНИЕ РАЗВИТИЯ АНАЛИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У БУДУЩИХ ЭКОНОМИСТОВ НА ПРАКТИКЕ

Аннотация: Основной задачей высшего образования является раскрытие и развитие индивидуальных возможностей студента, содействие раскрытию, развитию возможностей личной свободы и творчества. Сегодня в подготовке специалистов с высшим образованием важное значение имеет борьба двух противоположных направлений: фундаментализации и профессионализации. Приобретенные фундаментальные знания могут помочь в практической деятельности только при достижении определенного уровня профессионализации.

Ключевые слова: Самоконтроль, аналитическое мышление, образование, интеграция, экономика, рыночная экономика, педагогика, комплексный подход, современная наука и техника, самостоятельное мышление, система подготовки специалистов.

THE STATE OF DEVELOPMENT OF ANALYTICAL THINKING IN PRACTICE IN FUTURE ECONOMISTS

Annotatsiya: The main task of higher education is to help open and develop the individual capabilities of the student, to open the possibilities of personal freedom and creativity, to grow. Today, in the training of specialists with higher education, two opposite directions are important: the struggle for fundamentalization and professionalization. Acquired fundamental knowledge can only help in practical activities when it reaches a certain level of professionalization.

Keywords: Self-control, analytical thinking, education, integration, economics, market economics, pedagogy, integrated approach, modern science and technology, independent thought, specialist training system.

Analitik tafakkurni rivojlantirishga oid bilim, malaka, ko'nikmalar hosil qilish. Mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida iqtisodchi mutaxassislarni tayyorlash tizimini zamon talablari darajasida isloh qilish maqsadida iqtisodiy ta'limning xalqaro andozalaridan samarali foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki dunyoning rivojlangan va bozor iqtisodiyoti amal qilayotgan mamlakatlarda yangi mexanizmning keskin o'zgarishlariga moslasha oladigan va har qanday sharoitda raqobatlasha oladigan iqtisodchi mutaxassislarni tayyorlash borasida zamonaviy iqtisodiy ta'lim tizimiga allaqachon o'tib bo'lingan.

Bugungi kunda, o'tmishdan farqli o'laroq, yangicha mustaqil fikrlovchi, ijod qiluvchi talaba-yoshlarni tarbiyalash eng asosiy muammolarimizdan biri bo'lib qolmoqda. «Darhaqiqat, talabalik yillarida yoshlar biologik jihatdan barkamollik, ijtimoiy nuqtayi nazardan esa yetuklik, jismoniy barkamollik bosqichiga ko'tariladi. Talabalarda o'z-o'zini nazorat qilish, o'z-o'zini baholash, o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini boshqarish singari aql-zakovatning muhim jihatlari taraqqiyotning yangi yuksak bosqichiga ko'tariladi. Talabalarda tafakkurning rivojlanishi, ilmiy dunyoqarashning shakllanishida umumkasbiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ixtisoslik fanlari muhim o'rin tutadi».

Analitik tafakkurni rivojlantiruvchi bunday sifatlar, ko'nikma va malakalar bo'lajak iqtisodchini raqobatbardosh mutaxassis bo'lishi uchun juda muhimdir. Ushbu malaka va ko'nikmalarsiz kuchli liderlar va iqtisodiy soha mutaxassislarni yetishtirib bo'lmaydi. Bunday sifatlarni iqtisodiyoti kuchli davlatlarning ish beruvchilari ham yuksak qadrlaydilar. Bugungi kunda ushbu sifatlarning ahamiyati yuqorilab borayotganligini hisobga olsak, analitik tafakkurni bo'lajak iqtisodchilar uchun amaliy jihatdan qanday naf keltirishi ma'lum bo'ladi.

Talabalar tafakkuri, asosan, «o'qish, amaliy mashg'ulot va mustaqil bilim olish faoliyatida jadal va uzluksiz ravishda rivojlanadi. Ba'zan ma'ruza jarayoni ulardan reproduktiv tafakkurni taqozo etsa ham, lekin amaliy mashg'ulotlar, mustaqil topshiriqlar, laboratoriya topshiriqlari produktiv (ijodiy) fikr yuritish faoliyatini talab qiladi. Har ikkala ta'lim shakli ham talabalar aqliy mehnati, maqsadga yo'naltirilgan va muvofiqlashtirilgan diqqat yordamida amalga oshadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida zamonaviy iqtisodiyotning nazariy, amaliy va uslubiy asoslarini, tadbirkorlik va biznes qonuniyatlari yuzasidan chuqur nazariy metodologik, ilmiy-uslubiy xususiyatdagi bilimlar o'zlashtiriladi. Ayniqsa, ushbu davrda tafakkur talaba uchun omilkor aql-zakovat quroli vazifasini bajaradi»[4,p.34].

Analitik tafakkur asosida bo'lajak iqtisodchilarda ijodkorlik va tanqidiy fikrlashni rivojlanishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Kreativ fikr iqtisodiy masalani tubdan yangicha yo'l bilan hal etish hisoblanadi. Tanqidiy fikrlashning bu jarayondagi vazifasi esa iqtisodiy sohadagi mavjud tartib-qoidalarni, qadriyatlarni baholab borishni nazarda tutadi. Bu esa bo'lajak iqtisodchilarda analitik tafakkur asosida iqtisodiy masalalarni tez va osonlik bilan bartaraf etishga, tezkor xizmat ko'rsatishga imkoniyat yaratadi. Mantiq ilmi asosida shakllangan ijodiy tafakkur bo'lajak iqtisodchilarning yangi g'oyalar yaratishga yo'naltiradi, tanqidiy tafakkur esa ularning kamchilik va yetishmovchiliklarini aniqlaydi. Garchi alohida qo'llanilsa-da, tafakkurning har ikki ko'rinishi ijodiy vazifalarni bajarish uchun zarur, binobarin, tanqidiy tafakkur ijodiy fikrlashga ko'pincha to'siq yoki aksincha ta'sir ko'rsatishi ham mumkin. Ijodiy tafakkur bo'lajak iqtisodchilar o'z fikrlariga to'la erkinlik berish va ularni muayyan sohaga yo'naltirishni taqozo qiladi.

Iqtisodiy ta'lim jarayonida pedagog o'rgatish, bilim, malaka, ko'nikma hosil qilish vazifasini bajarsa, bo'lajak iqtisodchilar o'zlashtirish jarayonini o'z boshidan kechiradilar. Bu murakkab pedagogik va psixologik jarayon bo'lib, sezgi, idrok, tasavvur, tafakkur kabilar ishtirokida boradi. O'qish bo'lajak iqtisodchilarning o'zlashtirish, bilish qobiliyatlari, fikrlash operatsiyalari va harakatlarini hosil qilish jarayonidir.

Hozirgi zamon ilmiy-texnika inqilobining asosiy jihatlaridan biri ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarishning integratsiyalashuvi hisoblanadi. Bir-biri bilan bog'liq holda rivojlanadigan bu tizim barcha darajadagi yuksak malakali mutaxassislarni yetishtirib chiqaradi. Ular esa o'z navbatida, yangi ilmiy-texnika yutuqlarini ta'minlaydigan raqobatbardosh fanni va ishlab chiqarishni rivojlantiradi. Ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi mamlakat taraqqiyotiga xizmat qiladi. Ta'lim tizimini tubdan isloh qilishda xalqimizning jahon tamadduniga ulkan hissa bo'lib qo'shilgan boy ma'naviy merosi va salohiyatiga, rivojlanib borayotgan texnika va texnologiyalarga hamda ilm-fan yutuqlariga asoslangan holda ishlab chiqilgan, dunyoda noyob hisoblangan, bugun o'zining yuksak samarasini berayotgan milliy dastur hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi [3.p.20].

Integratsiyalashgan turli xildagi o'quv-ilmiy ishlab chiqarish birlashmalari iqtisodiyot va jamiyatning barqaror taraqqiyoti paytidagina emas, shuni alohida ta'kidlash lozimki, o'tish davrida jamiyat, iqtisodiyot hamda ta'lim tizimini qayta isloh qilish jarayonida bu sohaga tegishli kadrlarni tayyorlash ham nihoyatda zarurdir.

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar chuqurlashayotgan bir paytda korxonalar, tashkilot va turli muassasalarining faoliyat samaradorligini oshirishda zamonaviy bilimlarni egallagan kadrlarning analitik tafakkurini rivojlantirish va bu orqali iqtisodiy masalalarga tezkorlik bilan munosabat bildirish, yechim taklif qilish dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda. Bu esa iqtisod yo'nalishi talabalarida mantiqiy fikrlash va analitik tahlilkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishni talab etadi. Ushbu masalalarni takomillashtirish yuzasidan 2016-yil 14-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi nutqida Sh.Mirziyoyev quyidagilarni ta'kidlab o'tadi: «Hammamiz yaxshi tushunamizki, oldimizda turgan keng ko'lamlil vazifalarni bajarish uchun kadrlar bilan ishlashning butun tizimini takomillashtirishga doir bir qator ishlarni, albatta, amalga oshirishimiz kerak». Shuningdek, davlat rahbari ta'lim tizimi, xususan, oliy ta'limdagi o'qitish sifatiga doir mavjud muammolar va alohida ahamiyat qaratilishi lozim bo'lgan jihatlariga ham e'tibor qaratib kelmoqda. Bu borada Prezidentimiz: «Tajribali pedagog va mutaxassislarni jalb etgan holda, o'quv reja va dasturlarini tubdan qayta ko'rib chiqish zarur. Shuningdek, oliy o'quv yurtlaridagi o'qitish sifati bilan bog'liq zamonaviy o'quv reja va uslublarini jori etish talab darajasida emas... Yana bir muammoni hal etish ham o'ta muhim hisoblanadi: bu pedagoglar va professor-o'qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta'lim olish, ma'naviy-ma'rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarini shakllantirish jarayonlariga faol ko'mak beradigan muhitni yaratish zarur»ligini ta'kidlaydi.[2,p.45]

Iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida ta'lim ijtimoiy hayotdagi o'z o'rnini butunlay o'zgartirib, iqtisodiy taraqqiyotning asosiy omiliga aylanadi. Ta'limning yuksalgan ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati inson kapitalini shakllantirish asosi sifatida maydonga chiqadi. Hozirgi zamon iqtisodiyotida boshqa ishlab chiqarish resurslari emas, balki aynan inson kapitali ijtimoiy ishlab chiqarishning raqobatbardoshligi va samaradorligi asosi sifatida tan olinadi. Bilimlar asosiy ijtimoiy kapitalga aylanishi, bilimlarni o'zlashtirishdan ko'riladigan nafning o'sishi shu bilan belgilanadiki, bundan mazkur tovarni iste'mol qilgan odam, butun jamiyat va konkret korxonalar foyda ko'radi. Bularning barchasidan ta'limni aralash moliyalashtirish, mazkur sohada bozor munosabatlarini rivojlantirish uchun asoslar kelib chiqadi.

Bo'lajak iqtisodchilar uchun iqtisodiy fanlarning o'qitilish sifati va samaradorligini oshirish maqsadida, pedagogik texnologiyalarni zamonaviy axborot texnologiyalar imkoniyatlari asosida uch turdagi o'quv mashg'ulotlariga, ya'ni ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda kompleks holda qo'llash tavsiya etiladi. «Iqtisodiy fanlardan o'rganilayotgan materiallarning o'quv soatlari miqdori hisobga olingan holda mavzu bloklariga ajratiladi, har bir ma'ruza mavzu blokiga 2-8 o'quv soati oralig'ida vaqt ajratiladi hamda ushbu mavzu blokiga mos amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari mazmuni va hajmi belgilanadi. Bu usulda har bir mavzuni o'rganishdagi ichki izchillik va uzviylik to'la saqlanadi, talabalarda mavzuga oid malaka va ko'nikmalarni to'laroq va maqsadliroq shakllantirish imkoniyati kuchayadi».

Bo'lajak iqtisodchilarga iqtisodiy tarbiyaning bosh maqsadi – ularda iqtisodiy savodxonlik, iqtisodiy ong, iqtisodiy madaniyatni yuksaltirishdan iboratdir. Bu esa shaxsning kamol topish faoliyati vositasida aniq iqtisodga bog'liq, nazariy bilimlar tizimi, shuningdek, iqtisodiy bilim, ko'nikma va malakalar majmuasi, o'rganuvchining iqtisodiy ongiga bevosita ta'sir etishga imkon beruvchi bosqichlarni amalga oshirishdir.

Xulosa qilganda, oliy ta'limning asosiy vazifasi talabaning individual imkoniyatlarini ochish va rivojlantirish, shaxsiy erkinlik va ijodiylik imkoniyatlarini ochishga, o'stirishga yordam berishdan iborat. Bugungi kunda oliy ma'lumotli mutaxassislarini tayyorlashda ikki qarama-qarshi yo'nalish: fundamentallashtirish va professionallashtirishning kurashi muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимида киришиш тантанали маросимида бағишланган Олий Мажлис Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги нутқи. – Тошкент, 2016 йил 14 декабрь.
2. Мирзиёев Ш. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қонидаси бўлиши керак. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б. 45.
2. Hakimova M.F., Yulchyeva G.T. Zamonaviy iqtisodchining shaxsi. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2014. –B.143.
3. Ҳақимова М. Бўлажак иқтисодчи мутахассисларда иқтисодий тафаккурни шакллантириш (<http://tsue.uz/>)
4. Каримова В.М. Ижтимоий психология. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – B.34.
5. Abduraxmonovna, N. G. (2023). CURRENT STATE OF DEVELOPMENT OF ANALYTICAL THINKING IN FUTURE ECONOMISTS. *Science and innovation*, 2(B4), 724-730.
6. Abduraxmonovna, N. G. (2022). Factors for the Development of Creativity and Critical Thinking in Future Economists Based on Analytical Thinking. *Journal of Ethics and Diversity in International Communication*, 2(5), 70-74.
7. Nazarova, G. A. (2022). Will be on the basis of modern economic education Principles of pedagogical development of analytical thinking in economists. *Journal of Positive School Psychology*, 9579-9585.